

IBN XALDUNNING “MUQADDIMA” ASARIDA RASMIY LIBOSLAR XUSUSIDAGI FIKRLAR

Ozoda Yusupova

TermDU Yuridik fakulteti 2-bosqich talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18894152>

Annotatsiya. Ushbu maqolada arab tarixchisi va mutafakkiri Ibn Xaldunning “Muqaddima” asarida keltirilgan rasmiy liboslar haqida fikr yuritiladi.

Kalit soʻzlar: libos, rasmiy libos, hukmdorlar, davlat, hokimiyat, bezaklar, ramz, anʼana, hashamat.

Libos (arabcha "kiyim""ust-bosh") – inson tanasini oʻrash, himoya qilish va bezash uchun xizmat qiladigan kiyim-kechaklar majmui. U kundalik hayotda zaruriy ehtiyoj sifatida qoʻllaniladi. Libos inson madaniyati va sanʼatining muhim qismi hisoblanadi¹.

Yer yuzida odamzod paydo boʻlganidan keyin uning madaniylashganligining belgisi avvalambor libos kiyishidir. Ibtidoiy davrdan boshlab to hozirgi kunga qadar dunyo davlatlari aholisi bu borada bir necha xil libosni maʼlum davrga urfga aylantirib, qaysidir libos turini urfdan chiqarib foydalanib kelishmoqda. Boshqa sohalarida kuzatilayotgani singari bu borada ham modernizatsion, transformatsion jarayonlar oʻz taʼsirini oʻtkazmoqda.

Liboslardan foydalanishda turli xalqlarda turlicha yondashuvlar, milliy oʻziga xosliklar, anʼanaviylik va zamonaviylik jihatlari mavjud boʻlgan. Ijtimoiy hayotdagi oʻzgarishlar, madaniy jarayonlarning takomillashuvi liboslarni rasmiy liboslar va norasmiy liboslar sifatida taqsimlanishiga olib kelgan.

Rasmiy liboslar orqali odamlarning qaysidir mehnat faoliyati va mehnat turi bilan bandligini, demografik mansubligini bilish mumkin. Liboslar odamlarning milliy, diniy tarkibini anglashga yordam beradi, ularning aristokrat yoki oddiy oilaga mansubligini ham aks ettiradi.

Liboslar, ulardan foydalanish va ularning, yaratilish tarixi, yaʼni ishlab chiqarish jarayonlari, texnologiyalari, tartiblari haqida tarixiy, badiiy va diniy adabiyotlarda, ayniqsa, etnografiyada ham juda koʻplab maʼlumotlar oʻz ifodasini topgan.

Jumladan, oʻrta asr islom dunyosining taniqli arab tarixchisi va mutaffakiri Ibn Xaldunning “Muqaddima” asaridan ham bu haqida ayrim maʼlumotlar olish mumkin. Asarning XXXIV fasli “Davlat rahbari va hukmdorga xos boʻlgan ramzlar” deb nomlanadi. Uning tarkibida “Rasmiy liboslar” nomli alohida mavzu kiritilgan boʻlib, unda Ibn Xaldungacha boʻlgan davr va mutafakkir oʻzi yashagan vaqtda arab hamda arab boʻlmagan hukmdorlarning rasmiy liboslari xususida atroflicha maʼlumotlar berilgan.

Ibn Xaldunning yozishicha, “Davlat hokimiyati, saltanat va xonadonlar bilan bogʻliq anʼanalarga xos boʻlgan hashamat va dabdabalardan biri hukmdorlarning ismlari yoki ularga xos boʻlgan maxsus belgilarni ularning kiyishi uchun moʻljallangan ipak, deboj yoki abrisam (kimxob) dan tayyorlangan kiyimlar ustiga jiyak shaklida bezak tushirilar edi. Bu yozuvlar matoning toʻqilish jarayonida ip gazlamaga oʻtkazib yozish yoki matoga toʻqib kiritish orqali bajarilgan. Oltin iplardan yoki kiyim rangi bilan uygʻunlashmagan rang-barang iplardan foydalanilib, mutaxassis hunarmandlar oʻz sanʼatlaridan kelib chiqib, ushbu naqshlarni mato ichiga kiritganlar”².

¹ <https://wikipedia.org>

² Абдулрахмон ибн Муҳаммад ибн Халдун. Муқаддима. – Тошкент, “TRUST AND SUPPORT”, 2025, 165-бет.

Mutafakkirning tahlil qilishiga ko'ra, hukmdorlarga xos bo'lgan liboslardagi jiyaklar, ya'ni yozuvli naqshlar, yozuv yozilgan zar bezaklar davlat boshqaruvchisini va uning amaldorlarini bir-biridan ajratib ko'rsatish, ularning obro'-e'tiborini oshirish uchun xizmat qilgan.

Bundan tashqari hukmdor o'ziga yaqin bo'lgan kishilarni sharaflash yoki ularga xizmat lavozimlarini topshirish maqsadida ham shu kiyimlarni bergan.

Ibn Xaldunning qayd etishicha, islomdan oldingi arab bo'lmagan hukmdorlar o'z qiyofalari yoki maxsus shakllar hamda tasvirlar tushirilgan bezaklardan foydalanishgan.

Musulmon hukmdorlari esa bu usuldan voz kechgan holda uning o'rniga jiyaklarga o'z ismlari va rasmiy yozuvlar bilan naqsh soldirganlar. "Bunday holat Umaviylar va Abbosiylar davrida ham ulug'vorlik va shohona ko'rkamlikning ramzi hisoblangan. Hukmdorlar saroylarida ushbu jiyaklarni to'qish uchun maxsus uskunalar tashkil etilgan bo'lib, ular "Dorut tiroz" (bezakxona) deb nomlangan. Ushbu ishlarni nazorat qilish uchun maxsus amaldor – "Sohib ut-tiroz" (Bezak ishlari boshlig'i) tayinlangan. Bu lavozim egasi bo'yoqchilik, to'qimachilik asbob-uskunolari, hunarmandlar ishlari, ularning ish haqi va asboblarini ta'minlash kabi masalalarni boshqargan³. Muallifning ta'kidlashicha, bu lavozim faqat siyosiy doiraga sodiq va ishonchli kishilarga topshirilgan. Mazkur an'ana Andalusiya'dagi Umaviylar, ulardan keyingi musulmon davlatlar, Abbosiylar va Misrdagi Fotimiylar davlatida davom etgan. Sharqdagi arab bo'lmagan boshqa musulmon o'lkalarda ham bu tamoyil mavjud bo'lgan. Ammo, davlatlarning hududi qisqarishi, iqtisodiy qiyinchiliklar natijasida mamlakat zaiflashishi, moliyaviy inqirozlar bunday odatlardan voz kechilishiga sabab bo'lgan. Siyosiy hukmronlik maydonining torayishi tufayli hukmdorlar uchun maxsus bezakli kiyimlarni tayyorlash tartibi ko'pchilik davlatlarda bekor qilingan.

Ibn Xaldun Mag'ribda Muvahhidlar davlati haqida manbada "Hijriy VI asrning boshlarida (milodiy XII asr) Umaviylardan keyin Mag'ribda Muvahhidlar davlati hokimiyatga kelganida ushbu siyosiy doira hukmronlikning ilk davrida tilladan bo'lgan jiyaklar bilan bezanish an'anasiga amal qilmadilar. Chunki ularning ma'naviy yetakchilari bo'lgan Muhammad ibn Mahdiy tomonidan ularga singdirilgan soddalik tamoyillarining natijasi sifatida ular kamtarona va dindor hayot tarziga moyil bo'ldilar. O'z e'tiqodlari tufayli ipak va oltin kiyim kiyishdan tiyildilar.

Shuning uchun ushbu tizim ularning davlatida mavjud emas edi. Biroq davlatning oxirgi yillarida ba'zi hukmdorlar bu urf-odatni qayta tiklasga harakat qilishdi, lekin avvalgi darajada shon-shuhratga erisha olmadilar⁴, – deyiladi.

"Muqaddima" da XIV asrda Misr va Shomdagi turk xonadonlarida juda chiroyli va nafis zardo'zlik san'ati mavjud bo'lganligi, bezaklar saroylarda ustaxonalarda tayyorlanganligi, bu vazifa davlatning vazifasiga kirmaganligi, hukmdor doiralarga zarur bo'lgan bezaklar sof oltin va ipakdan ishlangani uchun bu ish bilan maxsus to'quvchilar shug'ullanganligi aytiladi.

Manbada bu haqida yana shunday fikrlar keltiriladi: "Bunga forsha "zarkash" (tilla ishlovchi) deb nom berganlar. Unda sulton yoki amirlarning ismlari naqsh qilingan. Ustalar davlatning boshqa bezakli buyurtmalarini ham tayyorlaganlar⁵".

³ Абдулрахмон ибн Муҳаммад ибн Халдун. Муқаддима. – Тошкент, "TRUST AND SUPPORT", 2025, 165-166-бетлар.

⁴ Абдулрахмон ибн Муҳаммад ибн Халдун. Муқаддима. – Тошкент, "TRUST AND SUPPORT", 2025, 166-бет.

⁵ Абдулрахмон ибн Муҳаммад ибн Халдун. Муқаддима. – Тошкент, "TRUST AND SUPPORT", 2025, 167-бет.

Shu o'rinda o'zbek milliy liboslari haqida so'z yuritilganda manbalarda xalqimizga xos liboslarning birinchi o'ziga xos xususiyati hokimiyat va badavlatlik belgisi bo'lmish oltin kashtachiligidir. Arxeologlar Toshkent viloyatidagi qazishmalar paytida oltin kashta izlarini topganlar: kiyimning bunday bezagi ipak paydo bo'lishidan oldin ham ma'lum bo'lgan degan faraz mavjud. Asl matolar gulli, ayrim hollarda geometrik bezaklar bilan bezatilgan. Bunday liboslar ijtimoiy mavqening yorqin belgisi bo'lgan.

Masalan, hukmdor va saroylardagi mulozimlar oltin naqshinkor liboslar kiyishi urf bo'lgan, ushbu qimmatbaho kiyimlarni hukmdorlar o'z mulozimlariga sovg'a qilganlar. Lekin qadimdan oddiy kishilarning kiyimi ham oddiy bo'lgan. "An'anaviy o'zbek libosi asosan, ustki ko'ylak, ishton va chopondan, boshga do'ppi, oyoqqa mahsi-kalish yoki etikdan iborat bo'lgan.

Erkaklar, ayollar va bolalar kiyimlari bichimining deyarli bir xilligi ularning qadimiyligidan darak beradi. Bunday liboslar oddiy usulda, ba'zan qaychisiz va ulgusiz, yaxlit matodan yirtib tikilgan. Bir parcha gazlamani ikkiga buklab, yelka tomonga ko'ndalangiga ikki yeng bilan bir parcha to'rt burchak xishtak (qo'ltig'iga solingan) tikib kiyilavergan".

Erkaklarning ko'ylak-ishtoni, odatda, bir rangda, asosan, oq rangda, ayollarniki rang-barang matolardan tikilgan. Ayollarning milliy liboslari ichki, ustki va kishilik kiyimdan iborat bo'lgan. Ustki kiyimlar – kamzul, yengil xalat (mursak, kaltacha), yengsiz nimchalardir.

Ayollarning o'ziga xos chopon shaklida bichib tikilgan ust kiyimi – mursak ilgari juda keng tarqalgan. Ular Buxoro, Xorazm va Qashqadaryoda yengi tirsakkacha kalta va kengligi bilan, Samarqand va Toshkentda uzun, yengsiz, bilakkacha yengi bo'lgani bilan farqlangan.

Mursak astarli qavima qilib tikilgan, qishki mursakka esa paxta solingan.

Xullas, Ibn Xaldunning "Muqaddima" asari orqali XIV asrda hukmdorlarga xos rasmiy liboslar, ularning tayyorlanishi, foydalanish tartiblari, odatlari, an'analari haqida ma'lumotlarga ega bo'lish mumkin. Bundan tashqari har bir davrda barcha davlatlarda elita, boshqaruvchilar, yetakchilar qatlami kimxob-u zarlardan tayyorlangan qimmatbaho, shohona liboslari bilan jamiyat a'zolaridan, boshqariluvchilar qatlamidan tafovut qilib turishlarini Ibn Xaldunning manbada bayon etgan fikrlaridan ham bilish mumkin⁶.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Абдуллахмон ибн Муҳаммад ибн Халдун. Муқаддима. – Тошкент, "TRUST AND SUPPORT", 2025.

Internet resurslari:

2. <https://wikipedia.org>
3. <https://oyina.uz>

⁶ <https://oyina.uz>